

**OLIY TA'LIMDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRUVCHI ZAMONAVIY
METODIKALAR****Boltabayeva Mashxura Anvar qizi****Sharipova Maftuna**

Urganch Ranch texnologiya Universiteti "Pedagogika va aniq fanlar" kafedrası

Pedagogika muatxassisligi 2-kurs Magistrantlari.

Tel: +998777778575

Tel: +998974515559 bmashhura861@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.17920226>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalar mustaqil fikrlashini shakllantiruvchi zamonaviy pedagogik metodikalar tahlil qilingan. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, loyihaviy o'qitish, case-study, tanqidiy fikrlash strategiyalari va kompetensiyaga asoslangan yondashuvning afzalliklari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq omillar, didaktik shart-sharoitlar va amaliy mexanizmlar batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, zamonaviy metodika, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, loyihaviy ta'lim, case-study, oliy ta'lim.

Аннотация. В статье анализируются современные педагогические методики, формирующие самостоятельное мышление студентов в системе высшего образования.

Рассматриваются интерактивные методы, проблемное обучение, проектные технологии, case-study, стратегии критического мышления и компетентностный подход.

Определены условия, факторы и механизмы, обеспечивающие развитие самостоятельности мышления у студентов.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, современные методики, интерактивные методы, критическое мышление, проектное обучение, case-study, высшее образование.

Abstract. This article analyzes modern pedagogical methodologies that foster independent thinking among university students. It examines interactive teaching methods, problem-based learning, project-based instruction, case-study approaches, ICT integration, and critical thinking strategies. The study highlights the factors, conditions, and mechanisms necessary for developing students' intellectual independence in higher education.

Keywords: independent thinking, modern methodology, interactive methods, critical thinking, project-based learning, case-study, higher education.

Kirish

Oliy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Innovatsion texnologiyalar, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, kreativ fikrlash va analitik yondashuvni rivojlantirish talabalarni fikrlash faoliyatiga jalb etuvchi metodlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Kadrlarning mustaqil izlanib o'rganishi ularning yetuk mutaxassis bo'lishiga katta yordam beradi. Ularni metodikalarga malakali kadr qilishga katta ko'mak beradi. Mustaqil fikrlashning shakllanishi — faqat bilim berish emas, balki talabani izlanishga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga yo'naltirishdir.

Mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi zamonaviy metodikalar va uning mohiyati.

Mustaqil fikrlash — bu talabani o'qituvchi yordamisiz mustaqil ravishda fikr yuritish, kryativ fikrlash, muammoni tahlil qilish, asosli xulosa chiqarish va yangi g'oyalar yaratish

jarayoni. U quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi: Analitik fikrlash, tanqidiy baholash yani tanqidni to'g'ri qo'yish. Muammoni turli tomondan ko'ra bilish bunda mummmoga aniq va kryativ yondashgan holda fikr yuritish Yangi g'oya yaratishda individual holda zamon talabiga mos ravishda fikr yuritish va uning eng to'g'ri deb qaralgan yechimlar yaratish va tanlash. Bugungi kunni axborot-texnologiyalarsiz tasavvur qilib bolmaydi sh sabab axborot bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllanritish juda zarur. Hozirgi kunda zamonaviy metodikalar va ilg'or texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan kadrlarga talab katta hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim faqat tayyor bilim berishga emas, balki talabaning fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarda nutiq qobilyati rivojlanib boradi. Bu esa o'z o'rinda o'quvchilarga yanadan tushunarli hamda mazmuni aniq yetib boradigan bo'ladi. Mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi zamonaviy metodikalar ayniqsa bo'lajak pedagoglarga kerak hisoblanadi. Har bir pedagog bilishi lozim bo'lgan zamonaviy metodiklar qatori;

1. Muammoli ta'lim

Muammoli vaziyatlar yaratish talabani izlanishga, savol berishga, faraz ilgari surishga majbur qiladi.

Asosiy afzalliklari:

- tahliliy fikrlash kuchayadi;
- sabab-oqibat aloqalari anglashiladi;
- ijodiy yondashuv rivojlanadi.

2. Interfaol metodlar

Quyidagi metodlar talabani faol fikrlashga jalb qiladi:

- "Aqliy hujum"
- "Debat"
- "Fishbone"
- "Insert"
- "B-B-B" (Bilaman – Bilmoqchiman – Bildim)

Interfaol metodlar talabalarining mustaqil tahliliy faoliyatini kuchaytiradi. Kreativ fikrlashini hamda ijtimoiy intellektni rivojlantiradi.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar

Tanqidiy fikrlash texnologiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Klaster
- Konseptual xarita
- Venn diagrammasi
- T-chizma
- Sinkveyn

Bu texnologiyalar ma'lumotni tahlil qilish, solishtirish, isbotlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

4. Loyihaviy ta'lim (Project-based learning)

Talabalar:

- real muammolarni o'rganadi,
- yechim ishlab chiqadi,
- loyiha mahsulotini himoya qiladi. Bu metod talabaning ilmiy izlanish olib borish, xulosa chiqarish va amaliy natija yaratish qobiliyatini kuchaytiradi.

5. Case-study metodi

Talabalarga real hayotiy vaziyatlar berilib, ularni tahlil qilish, muammoni aniqlash, yechim taklif etish talab etiladi.

Uning afzalliklari:

- tahliliy fikrlash;
- mantiqiy yechim topish;
- guruhda ishlash ko'nikmasi;
- professional kompetensiya shakllanishi.

6. AKT asosida mustaqil ta'lim

Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, simulatsiyalar mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

7. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim

Kompetensiyaviy yondashuv talabning quyidagi ko'nikmalarini shakllantiradi:

- mustaqil qaror qabul qilish;
- mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;
- kommunikativ fikrlash;
- muammoni hal qilish.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari

- O'quv jarayonida erkin fikrlash muhitini yaratish
- Talabani faol subyekt sifatida ko'rish
- Muammo va savollarga boy vaziyatlar yaratish
- O'qituvchi–talaba interaktiv munosabatini kuchaytirish
- Mustaqil topshiriqlar tizimini joriy etish
- Tahlil, solishtirish, mantiqiy bog'liqliklarni topishga yo'naltirilgan metodlardan

foydalanish.

Oliy ta'limda mustaqil fikrlashni shakllantirishning amaliy mexanizmlari

- baholashning kompetensiyaviy modeli;

Bu jarayonda qay tartibda baholash va tekshirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

- superior topshiriqlar;

Topshiriqlar berishda muammoli talimda foydalanish ularning fikrlash doirasini kengaytiradi.

- individual ta'lim yo'nalishlari;

Bunda talabalar individual shug'ullanishadi hamda malakalarini oshiradi

- elektron portfoliolar;
- guruhiy loyiha va ilmiy tadqiqotlar;

Guruh bilan ishlash qobiliyatini shakllantiradi va ilmiy tadqiqotlarni o'rganish ularda shu bilimni guruh bo'lgan holda loyhalashtiradi.

- talabalarining amaliyotga yo'naltirilgan faoliyati.

Bu jarayon bo'lajak kadrlarning bilimni malakasini va ko'nikmasini oshirishda yordam beradi.

Xulosa

Oliy ta'limda zamonaviy metodikalardan foydalanish talabning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, muammoli ta'lim, AKT, loyihaviy yondashuv va tanqidiy fikrlash strategiyalari talabning mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Kadrlarning intellekti hamda kiriyativ fikrlashini oshirish orqali yosh avladga zamonaviy metodik qo'llanmalar orqali darsni tashkil qilishni o'rgatgan bo'lamiz.

Mustaqil fikrlashga ega bo'lgan talaba nafaqat ta'lim jarayonida, balki real hayotda ham muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmutov M.I. Problema ta'lim asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1981. — 56–78-bet
2. Ziyodova Sh.Q. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2017. — 102–145-bet.
3. Shodiyev E. Interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. — 67–96-bet.
4. Jonson D., Jonson R. Cooperative Learning. — Boston, 1999. — 45–89 pages.
5. Brookfield S. Teaching for Critical Thinking. — San Francisco: Jossey-Bass, 2012. — 33–74 pages.
6. Prince M. "Does Active Learning Work?" Journal of Engineering Education, 2004. — 123–135 pages.
7. Cornell University Press. Case-Study Methodology Guide. — New York, 2010. — 12–38 pages.
8. Yuldashev J., Abduqodirov A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: Innovatsiya, 2020. — 89–120-betlar.
9. Klarin M.V. Pedagogik texnologiyaga innovatsion yondashuvlar. — Moskva: Pedagogika, 1995. — 54–93-betlar.